

Fuqarolarga subsidiya asosida ixcham issiqxonalar yetkazib berilayapti



Fuqarolarga subsidiya asosida ixcham issiqxonalar yetkazib berilayapti

Sux tumanida “Saxovat va ko‘mak” umumxalq harakati doirasida aholi bandligini ta‘minlash doirasida ham arziqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bugun Tul mahallasidagi yana bitta xonadonga subsidiya asosida issiqxonona yetkazib berildi.

Tul mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Karimjon Jo‘raevning ma‘lumotiga ko‘ra, mahallada 35 ta kam ta‘minlangan xonadonlar ro‘yxatga olingan bo‘lib, bu oilalar sektor rahbari tomonidan doimiy e‘tiborga olingan. Barcha xonadonlarga oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmon vositalari yetkazib berilgan bo‘lib, endilikda butun e‘tibor ayni paytda ishsiz bo‘lgan, ishga layoqatli kam ta‘minlangan oila a‘zolari bandligini ta‘minlashga qaratilgan. Tuman bandlikka ko‘maklashish markazi rahbari Ravshan Jonizoqovning ma‘lumotiga ko‘ra, ro‘yxatga olingan oilalarning aksariyatiga subsidiya asosida issiqxonalar tarqatib beriladi. Buning uchun, xonadon sohibi nomida kadastr hujjati rasmiylashtirilgani va oila sohibining o‘zi ishsiz maqomida bo‘lishi lozim. “Shu kungacha tumanning barcha sektorlar kesimida kam ta‘minlangan va ijtimoiy ko‘makka mo‘htoj oilalarning 32 tasiga shunday issiqxonalar yetkazib berdik. Berilgan ixcham issiqxonalarining umumiy qiymati 71 360 000 so‘mni tashkil etadi. Birinchi sektor hududida esa, 5 nafar fuqaroning uyida shunday ixcham issiqxonona paydo bo‘ldi” – deydi Ravshan Jonizoqov.

Bugun Tul mahalasidagi Murodali Ashurov xonadoniga tashrif buyurib, tuman hokimi va mahalla vakillari ishtirokida issiqxonona topshirildi. Taqdimot jarayonida qatnashgan O‘zbekiston Respublikasi Xalq qabulxonasi Sux tumani bo‘lim mudiri M. Botirovning so‘zlariga ko‘ra, bunday ezgu amal va xayrli ishlar muntazam davom ettiriladi. Maqsad – xalq roziligiga erishishdan iborat. “Eng avvalo, Prezidentimizga ming rahmat, bizdek oilalarga e‘tibor berayotgani uchun, berilgan bu sovg‘adan unumli foydanishga chin dildan harakat qilamiz” – deydi xonadon egalari. Shuningdek, oilaning tabiiy gaz ta‘minotida muammosi borligi aniqlandi va bu muammoni yechilishida amaliy yordam ko‘rsatilishi ta‘kidlab o‘tildi.



Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, ro'zai ramazon kunlarida kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash va ularga yordam ko'rstish savobli ish sanaladi. Bugun to'rt nafar ehtiyojmand fuqarolarga saxovatmand homiylarning moddiy ko'magi – pul mablag'lari taqdim etildi. Albatta, bunday e'tibor va rag'bat zamirida inson omili mujassamligi bizni quvontiradi.

Lekin shuni ham unutmasligimiz lozimki, bugun har bir inson o'zi uchun, oila a'zolari uchun, hayot uchun harakat qilishi va intilishi darkor. Zotan, harakat barakaning asosiy omili sanaladi. Fuqarolarga berilayotgan beg'araz bir martalik pul yordami vaqtincha muammo yechilishida ko'mak bo'lishi mumkin, lekin muammolar girdobidan bu usul ularni qutqara olmaydi. Fuqarolarga beg'araz bir martalik pul mablag'larini topshirish samarasiz ekanligini barchamiz teran anglashimiz lozim. Bu jarayon bevosita iqtisodiyotga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishi tabiiy hol. Albatta, pul mablag'lari orqali ko'mak berishning o'ziga xos tartib-qoidalari bor. Bankdan olinadigan kreditlar bunga yorqin misol bo'la oladi. Kredit tufayli qarz oluvchining foizi hisobidan davlat xazinasiga pul tushadi, pul mablag'lari aylanib, iqtisodiyotning barqaror o'sishiga omil bo'ladi. Shuni ham alohida ta'kidlashimiz lozimki, berilayotgan bir martalik beg'araz pul mablag'lari ijtmoy yordamga muhtoj bo'lmagan oilalarga ham yo'naltirilmoqda. Bu esa, insonda dangasalik, loqaydlik, befraqlik kabi xislatlar paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Iqtisodiy tomondan tahlil qiladigan bo'lsak, bu chora byudjet taqchilligining oshishi va inflyatsiyaning oshib borishiga sabab bo'la oladi.



Shu o'rinda, Prezidentimizning aytgan so'zlari yodga kelaveradi – "Biz odamlarimizga baliq emas, qarmoq berishimiz lozim". Chunki baliq berish – bu muft daromad, qarmoq esa, mehnat qilish va harakat demakdir. Berilgan baliqni bir zumda iste'mol qilish mumkin, lekin mehnat qilib, tutgan baliqning ta'mi ham, mazzasi ham o'zgacha bo'ladi. Qisqacha qilib aytganda, mehnat ila topgan daromad tatiydi, barakotli bo'ladi.

Sux tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-05-11 16:28:23